

QUYONCHILIKDA SELEKSIYA ISHLARI

Olim Mardanovich Mansurov, Raxmonqul Istamovich Ruziev

Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi

Annotatsiya: *Quyunchilik seleksiyasida chatishtirish va juftlash usullarini qo'llash orqali ona quyonlar naslli elita erkak quyonlari bilan qochiriladi. Juftlash usulida sof zotli va liniyalar yoki krosslardan foydalanilganda, chatishtirish usulida qon singdirish, qon kuyish, sanoat va murakkab usullarda chatishtirganda har xil quyon zotlari qatnashadi.*

Kalit so'zlar: *Sof zotli, liniyalar, qon singdirish, qon kuyish, sanoat va murakkab usullarda. Naslchilik.*

Abstract: *Breeding of female rabbits with elite male rabbits is carried out by using cross-breeding and mating methods in rabbit breeding. In the mating method, purebred, and lines or crosses are used, in the crossbreeding method, blood absorption, blood burning, industrial and complex methods of breeding involve various breeds of rabbits.*

Kirish

Respublikamizda urchitilayotgan Kaliforniya zotiga mansub quyonlarning biologik xususiyatlarini va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini o'rganish natijasida "Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi" tomonidan tajriba o'tkazish uchun mini quyonxonalar tashkil qilingan bo'lib, resurs tejamkor miniferma konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

Maqolada O'zbekiston sharoitida tez yetiluvchan quyon go'shti yetishtirishda quyunchilikda sof xolda juftlash va quyon zotlari bo'yicha chatishtirish usullari keltirilgan.

Quyunchilikda sof zotli juftlash usuli quyunchilikda asosiy usullardan biri hisoblanadi: Bunda quyonlar asosan tizimlar va oilalar bo'yicha xo'jalikda quyonlarni juftlaganda quyonlarni toza qonligi saqlanib qolinadi va naslchilik ishlari toza zotli quyonlarda olib borilib, kelgusida shu zot bilan shug'ullanuvchi naslchilik xo'jaligiga aylantiriladi.

Guruhlab juftlash - bunda bir guruh urg'ochi hayvonga kelib chiqishi aniq nasldor erkak hayvon biriktiriladi.

Tizimli guruhlab juftlash - naslchilik toifasiga ega bo'lmagan xo'jaliklarda amalga oshirish mumkin. Bunda har bir podaga zarur miqdorda bitta liniyaga xos nasldor erkak hayvonlar biriktiriladi va ular har 2-2,5 yil davomida almashtirilib boriladi, ammo inbridinga ya'ni yaqin qarindosh juftlashga yo'l qo'ymaslik choralari ko'riladi.

Gomogen juftlash - bu asosiy belgilari o'xshash hayvonlarni juftlash. Uning maqsadi hayvonning ota-onasida mavjud maqbul seleksiya belgilarini avlodlarida

mustahkamlash hisoblanadi. Lekin bunday juftlash uzluksiz 4-5 bo'g'inda qo'llanilsa, yaxshi natija bermasligi va hayvonlar noziklashib, mahsuldorligi va tashqi muhitga chidamligi ham pasayishi mumkin.

Geterogen juftlash - naslchilik toifasiga ega bo'lmagan hayvonlar podalarda keng qo'llaniladi. Bunday juftlashda o'xshash belgilarga ega bo'lmagan hayvondan foydalaniladi. Bu juftlashda hayvonlarning mahsuldorligi, avlod berish va yashovchanlik xususiyatlarini yaxshilash sur'ati yuqori bo'ladi. Populyasiyada fenotipik o'zgarishlar kengayadi.

Zot – deganda inson mehnati bilan yaratilgan, kelib chiqishi umumiy, o'zining muhim xo'jalik-biologik xususiyatlarini avlodlarga o'tkazish xususiyatlarga va muayyan tipga ega, ma'lum ariyalda tarqalgan qishloq xo'jalik hayvonlarining guruhlari tushuniladi.

Zot strukturasi – zot guruhi, zot ichidagi tip, liniya va oilalardan tashkil topadi. Agar zot katta hududlarda urchitilganda uning tarkibiga mintaqaviy tiplar ham kiradi.

Zot ichidagi tip – zotning ajralmas tarkibiy birligi hisoblanadi. Bunday tiplar naslchilik podalarida yaratiladi, uning asosini liniyalar va oilalar tashkil etadi. Yangi tipga xos hayvonlar yuqori mahsuldorligi, tana tuzilishi xilining o'xshashligi bilan ajralib turadi.

Tizim – deb elita sinfga mansub naslli erkak quyondan tarqagan avlodlariga aytiladi. Hayvonlarni tizimlar bo'yicha urchitish seleksiya ishining yuqori shakli bo'lib hisoblanadi.

Oila – naslli urg'ochi hayvondan tarqagan sermahsul hayvonlar guruhi. Oilalar bo'yicha seleksiya ishlarini olib borish zotni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish usullari – *Sof zotli urchitish* – bitta zotga mansub hayvonlar juftlanadi. Bunda urchitishda mahsuldorligi, konstitutsiyasi, ekstereri, irsiy belgilari bir-biriga o'xshash hayvonlar olinadi. Bunday usulda urchitishning asosiy maqsadi zotning qimmatli xo'jalik foydali va biologik xususiyatlarini saqlab qolish hamda yaxshilash hisoblanadi. Sof zotli urchitish usulida liniyalar bo'yicha urchitilishdan va liniyalar krossidan, oilalar bo'yicha urchitishdan keyin foydalaniladi.

Chatishtirish usuli – turli zotga xos hayvonlar o'zaro juftlanadi. Bu usulda juftlashdan olingan duragay hayvonlarda hayotchanligi, tanasining mustahkamligi, chidamliligi, mahsuldorligi va boshqa xususiyatlari yuqori bo'ladi, bu geterozis xodisasi deb ataladi.

Qon singdirish usuli – bunda kammahsuldor zotning urg'ochi hayvonlari bir necha bo'g'inlarida sermahsul zotning naslli erkaklari bilan chatishtiriladi. Bunda yaxshilanayotgan zotning xususiyatlari yaxshilovchi zotning xususiyatlari bilan bartaraf etiladi. Bu chatishtirish usuli duragay hayvonlarning mahsuldorligi, ekstereri, konstitutsiyasi yaxshilovchi zotning ushbu xususiyatlariga o'xshaganda va tenglashganda to'xtatiladi.



Qon quyish usuli – bu usuldan urchitilayotgan zotning mahsuldorlik darajasi asosiy talablarga javob berganda, ammo ayrim belgilari takomillashtirishga muxtoj bo'lganda foydalaniladi. Bunda yaxshilovchi zotning naslli erkaklaridan juftlashda bir marta foydalaniladi, olingan birinchi avlod duragaylari **yana** yaxshilanayotgan zotning naslli erkaklari bilan juftlanadi.

Zavod usulida chatishtirish – bu usul yangi zotlarni yaratishda qo'llaniladi va oddiy hamda murakkab takror chatishtirish usullaridan foydalaniladi. Oddiy chatishtirish usulida 2 ta zot, murakkab usulda esa uch va undan ko'p zotlardan chatishtirishda foydalaniladi. Bu usul qo'llanilganda muayyan bo'g'indagi sermaxsul duragay hayvonlar (o'z ichida) urchitiladi, ya'ni muayyan zotdorlikdagi duragay urg'ochi hayvonlar ushbu zotdorlikdagi duragay erkak hayvonlar bilan juftlanadi. Bu usul qo'llanilib ko'plab sermaxsul madaniy zotlar yaratilgan.

Sanoat chatishtirish usuli – chorvachilikni barcha tarmoqlarida qo'llaniladi. Bu usulda bir marta chatishtirish amalga oshirilib, olingan birinchi bo'g'in duragay hayvonlar asosan go'sht yetishtirishda foydalaniladi, ya'ni geterozis samarasidan foydalaniladi.

1-jadval

Sanoat chatishtirishda tavsiya etilgan chatishtirish kombinatsiyalar

Ona quyon zoti	Erkak quyon zoti
Sovet shinshillasi	Oq velikan
Sovet shinshillasi	Yangi zelandiya oqi
Sovet shinshillasi va Yangi zelandiya oq duragayi	Kaliforniya
Oq velikan	Yangi zelandiya oqi
Oq velikan	Kaliforniya
Vena ko'ki	Yangi zelandiya oqi
Vena ko'ki	Kaliforniya
Vena ko'ki	Sovet shinshillasi
Qora-jigarrang	Kaliforniya
Qora-jigarrang	Yangi zelandiya oqi
Kumushrang	Kulrang velikan
Yangi zelandiya oqi	Sovet shinshillasi
Yangi zelandiya oqi	Qora-jigarrang
Kaliforniya	Qora-jigarrang

Almashlab (galma-gal) chatishtirish usuli –bu chatishtirish usuli sanoat chatishtirish usulining bir turi bo'lib, ikki zotni chatishtirishdan olingan duragaylar yana bir marta ushbu zotlarning naslli erkaklari bilan chatishtiriladi, ulardan olingan duragay urg'ochi hayvonlar ona zotining naslli erkaklari bilan chatishtiriladi, ya'ni har bir bo'g'inda naslli erkak zoti almashadi. Ba'zi bir xollarda ikkinchi bo'g'inda olingan duragaylar go'sht ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin.

Gibridlash usuli- ikki turga mansub hayvonlardan juftlashda foydalaniladi, masalan qoramol bilan zebudan. Bunda yangi zot yaratish yoki uni ayrim mahsuldorlik va biologik xususiyatlarini yaxshilash ko'zda tutiladi.

Xulosalar

O'zbekiston sharoitida quyonchilik fermalarida va yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarda quyonlardan nasl olishda quyonlarni juftlash va chatishtirish ishlari bo'yicha mulohazalar va takliflar keltirigan.

Respublikamizda quyonchilikni rivojlantirishda va quyonlar sonini ko'paytirishda hamda quyon maxsulotlari ishlab chiqarishda chatishtirish va juftlash usllaridan oqilona foydalanish orqali yuqori quyon mahsulotlari ishlab chiqarishga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ruziev R.I. Yuldashev D.Q. Xidirov K.I. va boshqalar. Quyonlarni saqlash, oziqlantirish va naslchilik ishlari. Toshkent. Fan ziyosi"2023 y.150 b.
2. Sokrut V.I. va boshq. Quyonchilik bo'yicha ma'lumotnoma. Dnepropetrovsk: Promin, 1979. – 200 b.
3. Laktionov K.S. O.V. Timoxin Rossiya va chet ellardagi quyonchilikning zamovaniy xolati va kelajagi // Orel davlat agar universiteti xabarnomasi. – 2009. – № 2. – 26-27b.